

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 338.48:1.01:791.01

TURIZMNING AXLOQIY-ESTETIK MOHIYATINI TADQIQ ETISHGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ СУЩНОСТИ ТУРИЗМА****METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE MORAL AND AESTHETIC ESSENCE OF TOURISM****Baxtiyor Mirzaraximov** 

Farg'ona davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etish jarayonida qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar har tomonlama tahlil qilingan. Maqolada turizmning inson ma'naviyati va estetik idrokidagi o'rni fenomenologik, aksiologik hamda madaniy-falsafiy yondashuvlar asosida yoritiladi. Tadqiqotda turizm insonning ruhiy va axloqiy kamolotini ta'minlovchi, estetik zavqni uyg'otuvchi va madaniy integratsiyani rivojlantiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Shuningdek, turizm jarayonida shakllanadigan estetik tajriba, qadriyatlar almashinuvi va shaxsiy o'sish mexanizmlarining ilmiy asoslari tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida turizmni faqat iqtisodiy foyda manbai sifatida emas, balki inson kapitalini rivojlantiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi ma'naviy-estetik tizim sifatida o'rganishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Аннотация

В статье всесторонне анализируются методологические подходы к исследованию нравственно-эстетической сущности туризма. На основе феноменологического, аксиологического и культурно-философского подходов раскрывается значение туризма в духовно-нравственном и эстетическом развитии личности. Туризм рассматривается как социальное явление, способствующее формированию ценностных ориентаций, культурной интеграции и внутреннему росту человека. Особое внимание уделено анализу эстетического опыта и культурного обмена, возникающих в процессе путешествий. В условиях Узбекистана подчеркивается важность изучения туризма не только как экономического, но и как духовно-эстетического феномена, укрепляющего человеческий капитал и социальную устойчивость общества.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of methodological approaches to studying the moral and aesthetic essence of tourism. Based on phenomenological, axiological, and cultural-philosophical perspectives, the paper explores the role of tourism in the moral, spiritual, and aesthetic development of individuals. Tourism is interpreted as a social phenomenon that fosters value formation, cultural integration, and personal growth. The study also examines the aesthetic experience and intercultural exchange processes emerging during travel. In the context of Uzbekistan, particular emphasis is placed on viewing tourism not merely as an economic sector but as a moral-aesthetic system that enhances human capital and strengthens social stability.

Kalit so'zlar: turizm, axloqiy-estetik mohiyat, fenomenologiya, aksiologiya, madaniyat, inson kamoloti, ijtimoiy taraqqiyot.

Ключевые слова: туризм, нравственно-эстетическая сущность, феноменология, аксиология, культура, развитие личности, социальный прогресс.

Key words: tourism, moral-aesthetic essence, phenomenology, axiology, culture, human development, social progress.

KIRISH

Jahon turizmi taraqqiyotining davrlaridan biri sifatida 2014-yil 27-sentabrda Meksikaning Gvadalaxara shahrida "Turizm va taraqqiyot" shiori ostida Jahon turizmi kuni nishonlangani turizmning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ma'naviy ahamiyatiga e'tiborni yanada kuchaytirdi.[1] Bu voqea turizmning jahon miqyosidagi madaniy ta'sirini va uning insonlar hayotidagi qiymatini qaytadan anglash zaruriyatini ko'rsatdi. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "turizm etikasi to'g'risida"gi me'yorlar tadqiqotchiga ilmiy-axloqiy jihatdan aniq ko'rsatmalar beradi. Turistlar va mezbon jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda ehtirom, qonuniylik, ijtimoiy adolat va madaniy merosni himoya qilish kabi tamoyillar belgilab beradi.

Maqolada turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishda uchta asosiy metodologik yo'nalish — aksiologik, fenomenologik va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar tadqiq etilgan va ilmiy asoslangan

Aksiologik yondashuv turizmni qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan o'rganadi. Ushbu mezon tadqiqotlarnig markazida — turistlar va mezbbon jamiyatning qadriyatlari, ularning urf-odatlariga bo'lgan munosabati, madaniy merosga qarashlari, estetik afzalliklari va axloqiy normalari turadi. O'zbekiston sharoitida aksiologik tadqiqotlar xulosalari madaniy merosga nisbatan hurmat, tolerantlik va mehmondo'stlik kabi qadriyatlarning turistik harakatlarga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini fenomenologik yondashuv asosida tadqiq etish insonning sayohat jarayonidagi idrok va hissiy tajribasini anglash orqali uning ma'naviy, estetik tanlovni o'zgartiradi. Bu yondashuvda turizm oddiy iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki insonning dunyoni go'zallik va ma'naviy tajriba orqali kashf etish shakli sifatida talqin etiladi. Fenomenologiya turizm jarayonida subektiv idrokni, estetik zavqni va axloqiy tanlovni markazga qo'yadi. Natijada turizm insonning ichki dunyosi, madaniy identifikatsiyasi va go'zallikni his etish qobiliyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv turizmni jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy va institutsional munosabatlari doirasida tahlil qiladi. Mahalliy hunarmandchilik, madaniy mahsulotlarning tijoratlashuvi ijtimoiy munosabatlar turizmga qanday ta'sir qilishini ochib beradi.

Ushbu uchta yondashuvni birgalikda qo'llash — turizmning axloqiy-estetik mohiyatini xolis va kompleks ravishda tadqiq etishni ta'minlaydi. Amaliyotda ushbu metodlar global etika talabi, mehmon va mezbbon o'rtasidagi hurmat, madaniy merosni himoya qilish va barqarorlikni ta'minlash shartlari bilan uyg'unlashtirilgan bo'lishi lozim. O'zbekiston misolida bu yondashuvlar milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda estetik ta'limni kuchaytirish, jamiyat turizm bilan bog'liq munosabatlarga jalb etish va madaniy hududlarni samarali boshqarish uchun amaliy yo'l xaritasi yaratishga xizmat qiladi.

Turizmning mazmun-mohiyati, ularning tarixiy shakllanishi hamda zamonaviy tasniflarini tahlil qilish turizm fenomenining axloqiy va estetik jihatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu jarayon o'z navbatida turizmning kategoriyaviy asoslarini aniqlash va uni falsafiy hamda metodologik nuqtayi nazardan izchil tadqiq etish imkonini beradi.

Turizm kategoriyasi ko'plab fan yo'nalishlarida — iqtisodiyot, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa va etika doirasida o'rganilayotganligi sababli, uning mazmuni va ta'riflari ham turlicha shakllanmoqda. Shu bois turizmni axloqiy-estetik mohiyatini o'rganishda fenomenologik, aksiologik, sotsiomadaniy yondashuvlarning uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot ishida mavzu doirasidagi mavjud ilmiy manbalar, maqolalar, monografiyalar va ilmiy dissertatsiyalar atroflicha o'rganildi. Bu jarayonda mavzuga oid ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi, ularning natijalari o'zaro solishtirilib, umumlashtirildi. Ushbu tahlillar tadqiqotning ilmiy asosini shakllantirish, yangi ilmiy xulosalar chiqarish va takliflar ishlab chiqishda muhim metodologik zamin bo'lib xizmat qildi. Jumladan, UNWTOning 2014-yilgi hisobotida Meksika misolida turizm iqtisodiy natija va demografik oqimlarning o'sishi bilan birga, mahalliy jamiyatlarga ijtimoiy global rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.[2] Turizmning mezbbon jamoalarning qadriyatlari, madaniy meros va madaniy-identitetga hurmat asosida rivojlanishi kerakligini ta'kidlaydi bu esa aksiologik nuqtayi nazardan baholanishini anglatadi. Fenomenologik jihatdan, turistlar va mahalliy aholining o'zaro tajribasi, mehmondo'stlik orqali madaniyatni idrok etadi va yurt-joy hissi go'zallik orqali namoyon bo'ladi. Erik Cohenning[3] maqolasi turizm tajribasini fenomenologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qiladi. Muallif sayyohlik faoliyatini subyektiv sezgi, idrok va ong jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Cohenning ta'kidlashicha, turistik tajriba ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: birinchisi uni kundalik hayotdan qochish vositasi sifatida talqin etsa, ikkinchisi ideallikni izlash jarayoni sifatida qaraydi. Muallif ushbu tajribalarni besh tipologik shaklga ajratib, ularning har birini shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy markaz konsepsiyasi hamda sayyohlik manzillarining yaqinlik yoki uzoqlik darajasi bilan izohlaydi. Cohen fenomenologik metod yordamida turizm tajribasining xilma-xilligini tushuntiradi. Shu bilan birga, maqola turizm hodisasini anglashda qadriyatlar tizimi va sotsiomadaniy munosabatlarning bevosita ahamiyatini ham asoslab beradi. J.Edelheim turizmni aksiologik xususiyatini tahlil qiladi[4] mehmondo'stlik, erkinlik – turizm tajribasida markaziy o'rin tutishini ko'rsatib, ularning ijtimoiy

FALSAFA

munosabatlar orqali qanday shakllanishini yoritadi. Tadqiqotda aksiologik yondashuvni nazariy va empirik dalillar bilan uyg'unlashtiradi. Turizmni faqat iqtisodiy hodisa emas, balki madaniy va axloqiy tajriba sifatida talqin etishga xizmat qilishi ta'kidlaydi. O.A.Burukina, va G.N.Kutepova[5] tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari aksiologik metodologiyaning turizm sohasida amalda qanday joriy etilishi mumkinligini asoslanadi. Mualliflar estetik tamoyillarning turizm xizmatlarida brend yaratish va marketing strategiyalarida qanday aks etishini tahlil qiladi. Tadqiqotda nazariy va amaliy jihatlar o'rtasidagi bog'lanishga oid xulosalar, aksiologik qiymat yondashuv orqali madaniy va axloqiy o'lchovlarini ochib beradi. Wong, Huang va Li maqolasi[6] turistik xarid tajribasini aksiologiya nazariyasi bilan uyg'unlashtirib tahlil qiladi.. Aksiologik tahlilni amaliy soha darajasiga ko'taradi. Mualliflar brend, turistik muhit, arxitektura, dekoratsiya va xizmat muhiti kabi elementlarning ta'sirini shakllantirishdagi rolini empirik misollar bilan ko'rsatadi, shuningdek bu yondashuv turizm sohasida yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochadi. Goodfellow Publishers nashrida chop etilgan maqolada[7] turizmning sotsiomadaniy oqibatlarini chuqur ilmiy yondashuv orqali ochib beradi. Unda turizmning jamiyat hayoti va madaniy tizimlarga ijobiy hamda salbiy ta'sirlari yoritilgan. Mualliflar ijobiy jihatlar sifatida inklyuzivlikning ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, madaniyatlararo muloqot va global hamkorlikning mustahkamlanishini alohida ta'kidlaydilar. Bular jamiyatda madaniy boyliklarni ommalashtirish va ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, salbiy oqibatlar ham e'tibordan chetda qolmaydi. Jumladan, turizm jarayonida qadriyatlarining tijoratlashuvi, urf-odatlarining turistik ehtiyojlarga moslashtirilishi, madaniy identitetning yo'qolib borishi hamda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi kuzatiladi. Tadqiqotda sotsiomadaniy yondashuvning nazariy asoslarini empirik dalillar bilan uyg'unlashtirgan bo'lib, turizmning murakkab ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini anglashda mustahkam metodologik asos yaratadi. Akademik tadqiqotlar uchun u nafaqat nazariy tushunchalar, balki amaliy kuzatuvlar orqali ham turizmning madaniy va ijtimoiy oqibatlarini ilmiy baholaydi. Cohen, Erik, and Noel B.Salazar olib brogan tadqiqotda[8] turizm tajribasini faqat tashqi faoliyat emas, balki subektiv idrok va estetik hissiyotlar orqali ham talqin qilish zarurligini izohlaydi. Mualliflari turizmning oddiy iqtisodiy faoliyat emas, balki estetik ong hayotiy sinov va ijtimoiy-madaniy munosabatlarni qayta shakllantiruvchi jarayon ekanini asoslashga harakat qiladilar. Shunday qilib, fenomenologik, aksiologik, ijtimoiy-madaniy tahlillar turizmga oid tadqiqotlarida yangi nazariyalarni ochib, sayyohning estetik va ma'naviy ehtiyojini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Social Impacts of Tourism: Key Citations"[9] manbasida turizm ob'ektlarni tanlash jarayonidagi subektivlik va mintaqaviy afzallik yoritiladi. Ushbu manba sotsiomadaniy tadqiqotlar yo'nalishi uchun strategik manba bo'lib, turizmning ijtimoiy oqibatlarini baholash uchun muhim nazariy va empirik yo'nalishlarni kashf etadi. Xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va qo'llanmalar O'zbekistonda ham turizm siyosatini shakllantirishda indikatorlar tizimini yaratishda va tadqiqot metodlarini belgilashda qo'l keladigan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Turizmga oid kategoriyalarning ilmiy-nazariy asoslariga oid M.Alimovanning ilmiy tadqiqot ishida "turizm – bu elementlari o'zaro poliyerarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'langan, pirovard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirrali funksional tuzilmasi negizida shakllanadigan hamda tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir"[10], deb ta'rif berilgan. Berilgan ta'riflarda turizmga obyektiv faoliyat sifatida tadqiq etilganini ko'rish mumkin. Turizm nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida balki fenomenologik yondashuv orqali turizm insonning shaxsiy tajribasi va estetik idroki markaziy o'ringa chiqadi. Shu jihatdan, sayohat jarayoni nafaqat tashqi dunyo bilan tanishish, balki insonning ichki ruhiy kechinmalari, qadriyatlar tizimi va axloqiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'lanadi.

Boshqa bir ta'rif rus sotsiologi P.Sorokin tomonidan ishlab chiqilgan va bu ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. Unga ko'ra, "turizm asosan farovonlik, sog'liq, jismoniy barkamollik, estetik ehtiyojni qondirish sohasidir"[11]. Berilgan ta'rif turizmning mohiyatini keng qamrovli ijtimoiy hodisa sifatida yoritadi. Unga ko'ra, turizm nafaqat dam olish yoki vaqtni mazmunli o'tkazish faoliyati, balki insonning farovon hayot kechirishi, sog'lig'ini mustahkamlashi va jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, unda estetik ehtiyojlarni qondirish masalasi ham muhim o'rin tutadi. Bu jihat turizmning axloqiy-estetik mohiyatini ochishda asosiy mezonlardan biridir, chunki sayohat jarayonida inson o'zini tabiat, madaniyat va san'at go'zalliklari bilan uyg'unlikda his etadi. Sorokin fikri turizmni faqat iqtisodiy foyda yoki infratuzilma rivojlanishi nuqtai

nazaridan emas, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar manbai sifatida ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Insonning ruhiy holati, ma'naviy qoniqishi va estetik didi sayohat orqali boyiydi. Bunday omillar turizmning jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-mafkuraviy ahamiyat kasb etib, insoniy barkamollikka xizmat qiladi.

Turizmning ijtimoiy-falsafiy mazmunini tadqiq etgan ingliz sotsiologi Z.Bauman, zamonaviy jamiyatda turizmdan intellektual va ijodiy faoliyatning yangi shakli sifatida foydalanishni, shaxsda ilmiy va amaliy bilimlarni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi[12]. Olimning mulohazalari bo'yicha, turizm faqat hordiq chiqarish yoki sayohat qilish emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini oshiruvchi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi maydon sifatida ahamiyatlidir. Bu jihatdan qaraganda, turizm ilmiy bilishning yangi qirralarini ochadi: u insonning dunyoni yangicha idrok etishiga, o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishiga sharoit yaratadi. Bauman konsepsiyasi turizmni ijtimoiy-falsafiy kontekstdagi kompleks hodisa sifatida tushunishga yordam beradi. Unga ko'ra, sayohat jarayoni insonning tafakkurini kengaytiradi, turli madaniyat va qadriyatlar bilan tanishish orqali ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Shu tariqa turizm global ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash bilan birga, ilmiy va amaliy integratsiya uchun ham imkoniyat yaratadi.

Globalashuv jarayonlari jadallashtirilishidagi ulushi, insonning real axborot olish faoliyatiga ta'siri hamda shaxsning faol turmush tarzi sifatini oshirishi xususiyatlar uni ijtimoiy-falsafiy tadqiqot obyekti sifatida tahlil etishga ehtiyojni vujudga keltirmoqda. Britaniyalik sotsiolog John Urry turizmni oddiy sayohat yoki hordiq sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy dasturlaridan biri sifatida izohlaydi.[13] Unga ko'ra, turizm global dunyoni anglash, uni amaliy tajriba orqali bilishning zamonaviy shaklidir. Urryning nazariyasi turizm jarayonida inson faqat tashqi muhitni emas, balki o'zini ham qayta kashf etishini ko'rsatadi. Shu bois, turizm ilmiy-ijtimoiy tahlil uchun muhim fenomen bo'lib, u shaxsning idroki, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Urry nazariyasida "turistik qarash" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Bu tushuncha insonning kundalik hayotidan farqli ravishda, sayohat jarayonida dunyoni o'ziga xos ko'z bilan ko'rishi va estetik jihatdan qabul qilishi bilan bog'liq. Natijada turizm tajribasi shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya jarayonini chuqurlashtiradi. Urryning konsepsiyasi turizmni ijtimoiy-madaniy amaliyot sifatida tushuntirishga keng yo'l ochadi. U, ayniqsa, zamonaviy jamiyatlarda turizmning intellektual va estetik ehtiyojlarni qondirishdagi rolini ochib beradi hamda uni falsafiy va sotsiologik tadqiqotlarda muhim nazariy mezon sifatida talqin qiladi.

Yana bir ingliz tadqiqotchisi A.Y.Fliyer fikricha, "turizm – insonni va uning tana qiyofasini tuzatuvchi intellektual dam olish usulidir"[14]. I.T.Kasavin turizmni "bilimning yangi ontologiyasi"[15] deb nomlab, turizm shaxs ongini kengaytiradi, tanani mustahkamlaydi va estetik didni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv turizmni oddiy ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki ma'naviy va intellektual rivojlanish manbai sifatida talqin etishga imkon beradi.

Flierning nazariyasi turizmni madaniy taraqqiyotning muhim bo'g'ini sifatida ko'rsatadi. Sayohat davomida inson turli madaniyatlar bilan tanishadi, yangi qadriyatlarni o'zlashtiradi va mavjud dunyoqarashini qayta baholaydi. Shuningdek, tananing sog'lomlashuvi, ruhiy xotirjamlikning mustahkamlanishi va ijodiy tafakkurning rivojlanishi turizmning amaliy natijalaridan biri sifatida qaraladi.

Bu ta'rif turizmga aksiologik va sotsiomadaniy yondashuvlarning uyg'unligini namoyon qiladi. Turizm, aslida, insonning intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi hamda estetik va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlovchi universal faoliyat sifatida talqin qilinmoqda. Estetika va axloqiylikning turizm tajribasi bilan uzviy bog'liqligi to'g'risidagi quyidagi xorij olimlari tadqiqotlarini ham tahlil qilish mumkin.

Legrand, Will, and R S.Nielsenlar tomonidan olib borilgan maqolada[16] estetika va axloqiylikning turizm tajribasi bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Mualliflar "responsible experience economy" konsepsiyasi orqali sayohat jarayonida go'zallik hissi, estetik qadriyatlar va ularning axloqiy majburiyatlar bilan birgalikda qanday namoyon bo'lishini o'rganadilar. Tadqiqot metodologiyasi sifatida sifatli intervyu va holat tahlillari qo'llanib, sayyohlarning estetik tajribasi ularning ekologik ongini, madaniy hurmatini va axloqiy refleksiya-sini kuchaytirishi isbotlanadi. Bu yondashuv aksiologik metodni mustahkamlaydi, chunki qadriyatlar tizimi va go'zallikni idrok etish turizmning ijtimoiy va ma'naviy mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, maqola fenomenologik tahlil elementlarini ham o'z ichiga oladi: sayyohlarning shaxsiy his-tuyg'ulari, tajribaviy sezgilari va madaniyat bilan bevosita aloqasi markazga olinadi. Natijada, estetika va axloqiylik uyg'unligi turizmni nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy rivojlanish vositasi sifatida ko'rsatadi.

A.H.Vafina, Y.V.Paigunova, N.Z.Appakova-Shogina, A.V.Gut, va P.A. Sanger maqolada turizm aksiologiyasi ekologik subektivlik bilan bog'langan holda o'rganiladi.[17] Mualliflar qadriyatlar nazariyasiga tayanib, turistlarning motivlari va tajribalarini subektiv idrok darajasida tahlil qiladilar. Qadriyatlar modeli asosida estetik va ekologik qadriyatlar turizm tajribasiga qanday ta'sir ko'rsatishi ochib beriladi. Bu metodologik yondashuv aksiologik va fenomenologik komponentlarni birlashtiradi: bir tomondan, qadriyatlar tizimi (masalan, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'uliyat, madaniy hurmat) aks ettirilsa, ikkinchi tomondan, shaxsiy tajribalar orqali ma'no hosil bo'lishi fenomenologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola sotsiomadaniy yondashuvga ham to'xtaladi, mahalliy madaniyat, jamoalarning ehtiyojlari va turizmning ijtimoiy muvozanatga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shu sababli, bu manba turizmning axloqiy-estetik mohiyatini chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Willson, Gregory B.Alison McIntosh, va Anne Zahralar tomonidan olib borilgan tadqiqotda turizm jarayonida ma'naviylik tushunchasi fenomenologik metod orqali tahlil qilinadi.[18] Mualliflar sifatli intervyular yordamida sayohatning shaxsiy va ruhiy o'zgarishlarga olib keluvchi jihatlarini yoritadilar. Fenomenologik yondashuvning markazida turistning sayohat davomidagi hissiyotlari, ruhiy kechinmalari va o'zligini anglash jarayoni turadi. Shu bilan birga, estetik jihatlar ham o'rganiladi: tabiat manzaralari, madaniy yodgorliklar va diniy muqaddas joylar turistda go'zallikni idrok etish orqali ma'naviy o'zgarishga sabab bo'ladi. Aksiologik nuqtai nazardan esa turizm qadriyatlarni qayta baholash va yangicha ma'no berish vositasi sifatida qaraladi. Sotsiomadaniy jihatlar ham inobatga olingan: turizm diniy va madaniy kontekstlarda jamoaviy qadriyatlar bilan uzviy bog'lanadi. Shu tarzda, maqola turizmning axloqiy-estetik mohiyatini fenomenologiya va aksiologiya asosida chuqur tahlil etishga xizmat qiladi. Santos va Margarida Custodiolar esa turistlar go'zallikni qanday mezonlar asosida baholashlarini o'rganadi. Tadqiqot metodologiyasida fenomenologik yondashuv qo'llanib, turistlarning shaxsiy estetik baholari, his-tuyg'ulari va manzilni idrok etish jarayonlari tahlil qilinadi. So'rovnomalar va intervyular asosida manzilning go'zalligi tabiat manzaralari, arxitektura, madaniy landshaftlar va umumiy atmosfera orqali shakllanishi aniqlanadi. Aksiologik yondashuvda estetikaning qadriyat sifatidagi o'rni ta'kidlanadi. Turist uchun go'zallik tajribasi nafaqat zavq bag'ishlaydi, balki u ma'naviy va axloqiy qoniqishga ham olib keladi. Sotsiomadaniy jihatdan esa, estetik baholash jarayonlari mahalliy madaniyat, tarixiy meros va jamoaviy qadriyatlar bilan bog'lanadi. Natijada, maqola turizmni estetik mezonlar orqali o'rganish zarurligini asoslab beradi va turizm siyosati uchun estetik indikatorlarni ishlab chiqishadi.

XULOSA

Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini chuqur tahlil etar ekanmiz, u faqatgina sayohat, hordiq yoki iqtisodiy faoliyat emas, balki insonning ichki dunyosi, uning ma'naviy olami va estetik idrokini boyituvchi jarayon ekanligini tushunamiz. Turizm jarayonida inson o'zini va dunyoni yangidan kashf etadi, bu esa uning axloqiy va estetik qarashlarida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Sayohat davomida turli madaniyatlar, urf-odatlar, tabiiy manzaralar va tarixiy yodgorliklar bilan tanishish insonning estetik didi va dunyoqarashini o'zgartiradi, tafakkurini kengaytiradi hamda unga o'z hayotiga boshqacha nazar bilan qarash omili bo'lib xizmat qiladi.

Bunday jarayon axloqiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sayohat insonda bag'rikenglik, sabr-toqat, hurmat, o'zgalarga nisbatan mehr kabi fazilatlarini shakllantiradi. Turizm orqali inson o'zining jamiyatdagi o'rni, tabiiy va madaniy muhit oldidagi mas'uliyatini chuqurroq anglay boshlaydi. Shu ma'noda, turizmning estetik tajribasi bilan bir qatorda, u insonning axloqiy kamoloti uchun ham kuchli ta'sirga ega. Aynan shu jihatlar uni shaxs va jamiyat hayotida transformatsion kuch sifatida namoyon etadi — ya'ni insonni o'zgartiradi, uning qadriyat tizimini boyitadi va jamiyatning ma'naviy darajasini yuksaltiradi.

O'zbekiston sharoitida turizmning bunday jihatlarini chuqur anglash ayniqsa dolzarbdir. Chunki mamlakatda turizm sohasi faqat iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida emas, balki inson kapitalini boyituvchi, milliy qadriyatlar, madaniyat va tarixni saqlab qoluvchi, ularni yangi avlod ongiga singdiruvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida ham muhim o'rin tutadi. Mahalliy va xalqaro sayyohlar o'rtasidagi madaniy muloqot, o'zaro anglashuv va qadriyatlar almashinuvi natijasida jamiyatda bag'rikenglik, tinchlik va o'zaro hurmat kabi fazilatlar mustahkamlanadi.

Shunday qilib, turizmni faqat iqtisodiy foyda manbai sifatida emas, balki insoniy va ma'naviy barkamollikni ta'minlovchi, ijtimoiy taraqqiyotning barqaror poydevorini yaratadigan omil sifatida ko'rish lozim. U estetik zavq, axloqiy tarbiya va madaniy uyg'unlikni birlashtirgan murakkab, ammo

nihoiyatda zarur ijtimoiy hodisadir. Shu sababli, O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida turizmni inson qadriyatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi madaniy-falsafiy tizim sifatida rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rifai, Taleb. "World Tourism Day 2014: Tourism and Community Development." *CABI Blog*, 25 Sept. 2014, blog.cabi.org/2014/09/25/world-tourism-day-wtd-celebrated-every-year-on-27-september-is-a-global-observance-to-highlight-tourisms-social-cultu/.
2. "World Tourism Day 2014: High Level Dialogue on Tourism and Community Development" hujjatidan (UNWTO, Taleb Rifai)
3. Cohen, Erik. *A Phenomenology of Tourist Experience*. *Sociology*, vol. 13, no. 2, 1979, pp. 179–201.
4. Pernecky, Tomas. "Is an Axiological Turn Viable for Tourism Studies? Reinvestigating the Platforms Model." *Tourism Recreation Research*, vol. 48, no. 2, 2023, pp. 245–257. Taylor & Francis Online, <https://doi.org/10.1080/02508281.2023.2191469>
5. Burukina, O. A., and G. N. Kutepova. "Axiology of Tourism as a Basis of Professional Education for Tourism Industry." *EDULEARN19 Proceedings*, 11th International Conference on Education and New Learning Technologies, 1–3 July 2019, Palma, Spain. IATED, 2019, p. 10065. doi:10.21125/edulearn.2019.2516.
6. Wong, Ip Kin Anthony, et al. "Axiology of Tourism Shopping: A Cross-Level Investigation of Value-in-the-Experience (VALEX)." *Journal of Hospitality & Tourism Research*, vol. 48, no. 3, 2024, pp. 549–563. SAGE Journals, doi:10.1177/10963480221108907.
7. "The Socio-Cultural Impacts of Tourism." *Tourism and Cultural Change* (Chapter 8), Goodfellow Publishers, PDF ed., Chapter 8, Goodfellow Publishers,
8. Cohen, Erik, and Noel B. Salazar, editors. *The Phenomenology of Travel and Tourism*. Special Issue of *Humanities*, vol. 12, no. 3, MDPI, 2023, https://www.mdpi.com/journal/humanities/special_issues/BT6PCQ95MQ.
9. McCombes, Lucy, and Frank Vanclay, editors. *Social Impacts of Tourism: Key Citations*. International Association for Impact Assessment (IAIA), October 2024.
10. M.T.Alimova, Turizm tizimiga oid kategoriyalarning ilmiy-nazariy talqini va ta'riflarini takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016. –B. 7.
11. Сорокин П. А. Социальная и культурная динамика. – Издательство "Академический проект", 2017.
12. Bauman Z. *Globalization: The Human Consequences*. – John Wiley & Sons, 2013.
13. Urry J. *The Tourist Gaze: Leisure and Travel in Contemporary Societies*. London: Sage. 1990. P. 2
14. Флиер А.Я., Массовая культура и ее социальные функции// ОНС. 1998.№ 6.С.144-146
15. Касавин И.Т. «Человек мигрирующий»: онтология пути и местности// Вопросы философии. 1997. № 7.
16. Legrand, Will, and R. S. Nielsen. "Towards a Responsible Experience Economy: Ethics through Aesthetics in Tourism." *Advances in Hospitality and Leisure*, vol. 14, Emerald Publishing, 2018, pp. 173–182.
17. Vafina, A. H., Y. V. Paigunova, N. Z. Appakova-Shogina, A. V. Gut, and P. A. Sanger. "Theoretical and Applied Potential of Tourism Axiology and Environmental Subjectivities." *Caspian Journal of Environmental Sciences*, vol. 18, no. 5, 2020, pp. 525–531. doi:10.22124/cjes.2020.4482.
18. Willson, Gregory B., Alison McIntosh, and Anne Zahra. "Tourism and Spirituality: A Phenomenological Analysis." *Annals of Tourism Research*, vol. 42, 2013, pp. 150–168.